QISHLOQ XO‘JALIGI MAXSULOTLARINI ETISHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO‘LLARINING STATISTIK TAHLILI

Abdurayimov Kamollidin Xurram o‘g‘li
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Iqtisod” kafedrasi o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753228

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va uni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida olib borilayotgan islohatlar bilan solishtirish, xorijiy mamlakatlar tajribalaridan bizning mintalitetimizga xos bo‘lgan jihatlarini o‘zlashtirib olishga e’tibor qaratilgan. Ayniqsa dunyo qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida etakchi o‘rinlarni egallab kelayotgan Xitoy, Niderlandiya, Rossiya kabi mamlakatlar tajribalarini o‘rganish qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohatlarni yanada mukammalroq va maqsadliroq bo‘lishiga xizmat qilishiga ahamiyat berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, yer islohoti, Xitoy, Niderlandiya, Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina mamlakatlari qishloq xo‘jaligi islohoti, import, eksport, model, integratsiya, agrar sektor.

АННОТАЦИЯ

В данной статье основное внимание уделяется изучению опыта зарубежных стран в аграрном секторе и сравнению его с реформами, проводимыми в аграрном секторе нашей страны, а также заимствованию аспектов, характерных для нашего менталитета, из опыта зарубежных стран. В частности, большое значение придается изучению опыта таких стран, как Китай, Нидерланды, Россия, являющихся ведущими экспортерами сельскохозяйственной продукции в мире, с целью сделать проводимые в сельском

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

сельское хозяйство, фермерство, животноводство, земельная реформа, аграрная реформа в Китае, Нидерландах, России, Казахстане, Украине, импорт, экспорт, модель, интеграция, аграрный сектор.

хозяйстве реформы более совершенными и целенаправленными.

ABSTRACT

This article focuses on studying the experience of foreign countries in the agricultural sector and comparing it with the reforms carried out in the agricultural sector of our country, as well as borrowing aspects characteristic of our mentality from the experience of foreign countries. In particular, great importance is attached to studying the experience of such countries as China, the Netherlands, Russia, which are the leading exporters of agricultural products in the world, in order to make the reforms carried out in agriculture more perfect and targeted.

KEYWORDS

agriculture, farming, livestock farming, land reform, agrarian reform in China, the Netherlands, Russia, Kazakhstan, Ukraine, import, export, model, integration, agricultural sector.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo‘nalishlari, raqamli texnologiyalarga asoslangan “Qishloq xo‘jaligi-4,0” va “Aqlli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyalarini rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlanib dunyo iqtisodiyotida (va ayniqsa qishloq xo‘jaligida) o‘zining mustahkam o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lgan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va ularni o‘zimizda tadqiq etish, avtomatlashtirilgan raqamli texnologiyalarni qo‘llashga asoslangan qishloq xo‘jaligi majmui boshqaruvida raqamlashtirilgan texnologiyalar”, “aniq dehqonchilik”, “aqlli bog‘”, “aqlli issiqxona” va “aqlli chorva fermasi” kabi innovatsion usullarni joriy etishni o‘rganish, qishloq xo‘jaligida raqamli agrotexnologiyalarni joriy etilishi borasidagi mavjud muammolar, ularga ta'sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Shuningdek,dunyoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishda etakchi bo‘lib hisoblanadigan Xitoy Xalq Respublikasining 1978-yilgi qishloq xo'jaligidagi islohotlarning Xitoy taraqqiyotida tub burilish yasagan muhim tarixiy davr hisoblanishi, rahbariyatning “ochilish va tuzilmalar” siyosati e'lon qilinishi kabi jihatlariga, Niderlandiyaning qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlari, qonunchilik asoslari va natijalariga hamda MDH respublikalaridan Rossiya, Ukrayina va Qozog’stonning qishloq xo‘jaligida amalga oshirgan islohotlariga, qonunchilik asoslari va natijalariga ham to‘xtalib o‘tishga harakat qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xitoy Xalq Respublikasining qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlari tajribasiga asosan iqtisodyotining o‘sishi aynan qishloq xo‘jaligidan boshlangan. Xitoyning bu boradagi tajribasidan biz ham rivojlanish uchun andoza olsak bo‘ladi.

Xitoy Xalq Respublikasida (1949 yilda hokimiyatga kelgan Mao Tszedun tomonidan birlashtirildi) yerlar boy zamindorlardan tortib olinib, 300 million dehqonga bo‘lib berildi, sanoatlashish darajasi biroz o‘sdi, xalqning turmush tarzida ijobiy tomonga siljish bo‘ldi. Biroq, 1952 yildan boshlab xalqning ustidan birin-ketin o‘tkazilgan kommunistik iqtisodiy tajribalar iqtisodiy inqirozga va oxir-oqibat ommaviy ocharchilikka olib keldi. Xususiy mulkchilikka qarshi kurashish jarayonida oilalardan hatto kichkina tomorqalar va oddiy hunarmandchilik dastgohlari tortib olindi, xususiy tartibda oziq-ovqat maxsulotlari ishlab-chiqarish man etildi[1].

Xitoy iqtisodiyoti 1978 yilda boshlangan islohotlardan beri sezilarli o‘sishni boshdan kechirdi(FDI), va bir qator keyingi siyosiy tashabbuslar bilan oldinga surildi. Ya'ni mamlakatda (1979 yilda) «Islohot va ochiqlik siyosati» e'lon qilindi[2].

Ushbu islohatning asosiy mazmuni uy xo‘jaligi (jamoa shaklida faoliyat yuritayotgan) yerlarni yakka tartibdagi uy xo‘jaliklariga qayta taqsimlash hisoblanadi va natijada islohot fermerlar sonining oshishiga olib keldi hamda qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini taxminan 50 foizga oshirdi.

Niderlandiya qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini eksport qilish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Uning eksport hajmi bo‘yicha gullar, sabzavotlar va mevalar dunyoda birinchi o‘rinda turadi; Sut maxsulotlari eksporti faqat Germaniya va Yangi Zelandiyadan keyin ikkinchi, dunyoda uchinchi o‘rinda turadi; Hayvon va o‘simlik moyining eksport reytingi Xitoy va Hindistondan keyin ikkinchi o‘rinda, shuningdek dunyoda uchinchi o‘rinda turadi; Go‘sht eksporti dunyoda AQSh, Braziliya va Germaniyadan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi. 2020-yildan beri Niderlandiyadan qishloq xo‘jaligi maxsulotlari eksporti qiymati doimiy ravishda 100 milliard dollardan oshib, jahonda ikkinchi o‘rinni saqlab qoldi[3].

Qozog'iston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlar jarayoni boshlandi. Mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini strategik tarmoq orqali yetkazib berish, ta'minlash, eksportni sanoat mahsuloti hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda qishloq xo'jaligining ahamiyatini oshirib borish asosiy vazifalardan biri edi[5].

Ukraina - Yevropadagi eng yirik qishloq xo'jaligiga ega mamlakatlardan biri bo'lib, "Yevropaning non savati" sifatida tanilgan. Mustaqillik (1991) yillaridan

so'ng Ukraina qishloq xo'jaligi iqtisodiy tub o'zgarishlarga duch keldi. Davlat mulkchiligidan xususiy sektor tomon keng ko'lamli islohotlar olib borildi[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, kuzatish, solishtirish, tanlash, umumlashtirish, dinamik o'zgarishni aniqlash, makroiqtisodiy ma'lumotlarni taxlil qilish, induktsiya va deduktsiya, klassifikasiyalash, algoritmlashtirish, dasturlash, qiyosiy taqqoslash va ekspert baholash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizdagi kabi Xitoyda ham qishloq xo'jaligi tizimda barcha ishlab chiqarish davlat yoki jamoa mulk hisoblangan. Ishlab chiqarish va fermerlarning individual tashabbuslari deyarliyoq edi. 1960–70-yillarda ishlab chiqarish hajmi yetarlicha o'sish sur'atini ko'rsatmadi, oziq-ovqat tanqisligi va qishloq aholisi kambag'alligi keskin oshib ketdi.

1978 yilning dekabr oyida Xitoyning Anxuey viloyatidagi Syaogang nomli qishloqda (21ta oila) qishloq faollari tajriba o‘tkazishadi: yani jamoa bo‘lib ishlatilayotgan umumiy yerlarni o‘sha 21 oilaga bo‘lib berishga qaror qilishadi. Kichkina qishloqda o‘tkazilgan mazkur islohot yaxshi natija beradi.

1978 yilgi ushbu islohatning qishloq xo'jaligidagi eng muhim elementi - "uy xo'jalik ishlab chiqarish" tizimi edi. Bu tizimga ko'ra, yerlar hali ham davlat mulki bo'lib qolganiga qaramay, ular uzoq muddatli ijaraga (avval u boshida 1yildan 3 yil,keyinchalik 30 yillik) fermerlarga topshirildi. Endi har bir uy xo'jaliklari o'z joyi uchun mas'ul bo'lib, hosilni yig'ib olish, mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ldi. Natijada fermerlar o'z ishining samaradorligini oshirdi, bu esa hosildorlik darajasini ko‘paytirdi. 1978–1984-yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 30% dan ortiqroq o'sdi.Fermerlar daromadi ikki baravarga ortdi, kambag‘allik darajasi keskin pasaydi. Oziq-ovqat ta'minoti muammosi qisqa vaqt ichida bartaraf etildi va Xitoy qishloq xo'jaligining innovatsion asoslarda qurilishga poydevor bo'lib xizmat qildi.1981 yilga kelib, 98 foiz ekin yerlari dehqon oilalari tasarrufida edi. Xitoy Konstitutsiyasida fuqarolarning xususiy mulkchilik huquqlari biriktirildi, bu ham qishloqlarda xususiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘ldi[1].

Xitoyda 1978-yilgi iqtisodiy jarayonlardan so'ng iqtisodiy erkin va ishlab chiqarish jarayonlari asosida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha bir nechta modellarning natijalari kuzatildi. Ushbu modellar va mexanizmlar mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini ta'minlash, fermerlar daromadini, innovatsiyalarni joriy qilish va qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilishda muhim omil bo'ldi[2]:

1. “Ikkita bozor – ikki narx” modeli - bu model Xitoyda o'tish davrida keng qo'llanilgan bo'lib, unda davlat va bozor tizimi parallel faoliyat yuritadi. Yani davlat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlar masalan (g'alla, paxta) o‘zi belgilagan narxlarida xarid qildi va shu bilan birga, fermerlar o'z mahsulotlarini yetishtirish, erkin bozorda sotish huquqiga ega bo'ldi. Bu davlatning oziq-ovqat mahsulotlarini kafolatlab, bir boshqaruvning o'zida bozorni nazoratda saqlashga ham xizmat qildi;

2. Uy xo'jaligiga asoslangan ishlab chiqarish modeli - fermerlar mustaqil ishlab chiqarish, boshqaruv va qarorlar qabul qilish xuquqiga ega bo'ldi. Yani maxsuldorlik oshirildi, fermerlar orasida innovatsiyalarga yordamni ko‘paytirdi va kichik fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga zamin yaratildi;

3. Fermer kooperatsiyasi va klaster modeli - 2000-yillardan Xitoy hukumati kichik fermerlarni birlashtirish tizimini yo‘lga qo‘ydi, fermerlar kooperativlarini tashkil qildi, Agro-klasterlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, qayta ishlash, saqlash va eksport qilishni birlashtirgan tizimlar)ni rivojlantirdi. Bu model resurslardan samarali ishlab chiqarish, texnologiyani joriy qilish va eksportning ortishiga xizmat qildi;

4. Qishloq sanoatlashtirish modeli - Xitoyda “sanoat + qishloq xo‘jaligi” integratsiyasi asosida, fermerlar, qayta ishlovchi kuch va logistika kompaniyalari o'zaro hamkorlikda ishlay boshladi. “Ferma-zavod-brend” zanjiri orqali mahsulot hajmi ortdi. Qishloq xo'jaligi innovatsion biznesga aylandi;

5. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish - so'nggi vaqtda Xitoy qishloq xo‘jaligi yo'nalishida innovatsion loyihalarni qo'llamoqda, aqlli qishloq xo'jaligi (Smart Agriculture) – dronlar, IoT jihozi, sun'iy intellekt orqali yer nazorati va hosil monitoringgi olib borilmoqda.Biotexnologiyalar – genetik modifikatsiya orqali yuqori hosilli navlarni olish. Raqamli agroxizmatlar – mobil ilovalar orqali kredit, sug'urta va texnik maslahat xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yaxshilash uchun keng asos yaratish uchun Xitoy hukumati bir qator normativ-huquqiy bazani shakllantirgan. Ushbu normativ-huquqiy bazaning asosiy maqsadi yer resurslaridan foydalanish, fermerlarning huquqlarini himoya qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va inklyuziv boshqaruv modelini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir:

1. Yerga egalik va yurgizish qonunchiligi - Xitoyda yer davlat mulki. Qishloq xo'jaligi yerlari uzoq muddatli ijara asosida fermerlar ixtiyoriga topshirildi. 2002-yilgi "Yer egaligini tartibga solish qonuni"ga tuzatmalar kiritildi: Fermerlarga yerni 30 yillik ijaraga olish huquqi berildi.Yerga egalik orqali yerni ijaraga berish va ijaraga olish mumkin boldi. "Fermerlarning yerga bo'lgan huquqlarini himoya qilish

to'g'risida qonun" (2007). Yer ijarasi, meros qilib qoldirish va sug'urtalash huquqlari kafolatlandi.Yerni shaxsiy musodara qilish joylarining oldi olindi;

2. Qishloq xo'jaligini tartibga soluvchi qonunlar - Xitoy hukumati agrar sohani rivojlantirishda davlat aralashuvini tartibga solvchi muhim qonunlarni tuzdi, yani "Qishloq xo'jaligi to'g'risida qonun" (2004), Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash davlat strategiyasi sifatida belgilandi, Subsidiyalar, texnik yordam va ilmiy manbalar uchun davlat mablag'lari ajratilishi ishlab chiqildi."Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida qonun" (2010), Yo'l, sug'orish tizimlari, elektr ta'minoti kabinetlarini yaxshilashga, infratuzilmalarni yaratishga imkon berdi. Hukumat har bir viloyat bo'yicha alohida investitsiya rejalarini ishlab chiqardi.

3. Fermer xo'jaliklari va kooperatsiyalarni qo'llab-quvvatlash - "Fermerlar kooperativlari to'g'risida qonun" (2007). Kichik ishlab chiqarish birlashib, texnika, malaka oshirish va marketing bo'yicha hamkorlik qilish uchun huquqiy baza yaratildi. "Agrobiznesni rag'batlantirish huquqi to'g'risida qonun" (2015). Qishloq xo'jaligida startaplar, innovatsion texnologiyalar va elektron tijorat platformalarini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari va grantlar belgilandi.

4. Qishloqni rivojlantirish bo'yicha umumiy strategik hujjatlar - "Yangi qurish" dasturi (2006-yildan): infratuzilmani yaxshilash, ta'lim va sog'likni saqlash."Yagona rivojlanish" strategiyasi (2018-yildan): shahar va qishloq o'rtasidagi farqni aniqlash, xavfsizlikni ta'minlash kabi chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Xitoy qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan slohatlar ishlab chiqarishning sifatini oshirdi.

Xitoy Xalq Respublikasida1978-yildan iqtisodiy qishloq xo'jaligi, mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutdi. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortdi.

2020-yilga kelib Xitoy aholisi oziq-ovqat bilan 95% darajada ichki ishlab chiqarish orqali ta'minlandi. Agrar sektorda ichki talabni to'g'ridan-to'g'ri qoplaydigan va eksportga ega bo'lgan tizim shakllandi.

Islohotlar asosida erkinlik va bozor darajasi, davlat ajratilgan subsidiyalar sabab 1978-yildan 2020-yilgacha Xitoyda 800 milliondan ortiq inson qashshoqlikdan chiqarildi.

Fermer xo'jaliklari uchun erkin bozor, texnik ko'mak va infratuzilma takomillashuvi tufayli daromadlar o'sdi. Uy xo'jaliklari daromadi 40 yilda 20 martadan ortiq oshgan. Fermerlar orasida huquqiy sovotxonlik va tadbirkorlik ruhiyati shakllandi.

3000 dan ortiq “aqlli ferma” tashkil etildi. IoT, GPS texnologiyalari qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirdi. Innovatsion vosita– suv sarfini 20% 30% gacha kamaytirdi, pestitsidlar iste'molini 50% gacha birlashtirishga erishildi. Qishloq

xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, ekologik toza texnologiyani yo‘lga qo‘yish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sir kamaytirildi. Organik dehqonchilik va ekologik fermerlikni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni ishga tushirildi. “Yangi qishloqni qurish” strategiyasi orqali ichki nazorat va qoloq viloyatlar rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Infratuzilma, ta'lim, sog'liqni sqlash, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash qishloqlarda kengaydi[2].

Niderlandiya o‘zining kichik hududi, zich aholi soni va cheklangan tabiiy resurslariga qaramasdan, hozirgi kunga kelib jahondagi eng yirik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportchilaridan biri hisoblanadi. Bu muvaffaqiyatga erishish, avvalo, strategik asoslangan qishloq xo‘jaligi siyosati, chuqur islohotlar, ilmiy-texnik innovatsiyalar va barqaror rivojlanishga asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilgan.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish: hosildorlikni oshirish uchun yuqori sifatli urug‘lar, mineral o‘g‘itlar va pestitsidlar keng qo‘llanildi.

Kooperatsiyalar tashkiloti: fermerlar kooperativlarga birlashdi (masalan, FrieslandCampina) – ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bir tizimda boshqarildi.

Ilm-fan va innovatsiyalar: Wageningen universiteti va boshqa ilmiy markazlar fermerlarga ilmiy ko‘mak ko‘rsatdi.

Innovatsion klasterlar: fermerlar, ilmiy markazlar va kompaniyalar birgalikda ishlashdi.

Barqaror rivojlanishga o‘tish (1990-yildan boshlab)kimyoviy moddalardan foydalangan holda ishlab chiqarishni cheklash boshlandi vaorganik dehqonchilik va ekologik toza texnologiyalar rivojlantirildi[7].

Niderlandiyada qishloq xo‘jaligidagi islohotlar bosqichlari asosan 1950-yillarda, Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davrida boshlangan. Urushdan jiddiy zarar ko‘rgan mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun AQSHning Marshall rejasi doirasida ajratilgan moliyaviy yordamdan samarali foydalandi. Natijada, mexanizatsiya, yerlarni melioratsiya qilish va yuqori hosildor navlarni tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rildi.1960–1980 yillarda esa intensiv ishlab chiqarish modeli asosida hosildorlikni oshirishga katta e’tibor qaratildi. Kimyoviy o‘g‘itlar, pestitsidlar va zamonaviy texnik vositalar joriy qilindi. Fermerlar birlashmalari (kooperativlar) orqali ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayonlari o‘zaro integratsiyalashdi.1990-yillardan boshlab esa ekologik barqarorlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Niderlandiya hukumati ishlab chiqarishning ekologik oqibatlariga e’tibor qaratib, organik dehqonchilik, chiqindisiz texnologiyalar, suv va tuproq resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha siyosat olib bordi.

Qishloq xo‘jaligini tartibga soluvchi qonunlar Niderlandiyada uzoq yillar davomida takomillashib bordi. 1954-yilda qabul qilingan “Landbouwschap” qonuni qishloq xo‘jaligini boshqarish va modernizatsiyalashning huquqiy asosini yaratdi. 1962-yildan boshlab, Niderlandiya Yevropa Ittifoqining Umumiy Qishloq Xo‘jaligi Siyosati (CAP) doirasidagi dasturlarda faol ishtirok eta boshladi. Ushbu siyosat orqali subsidiyalar, narx barqarorligi va ekologik qoidalarga mos ishlab chiqarish rag‘batlantirildi.

1991-yilda esa “Nitrat direktivasi” (Nitrate Directive) qabul qilinib, nitrat ifloslanishini kamaytirish va suv havzalarini himoya qilish bo‘yicha qat’iy ekologik me’yorlar belgilandi. Keyingi yillarda “Green Deal” dasturlari orqali ekologik toza texnologiyalar, raqamli qishloq xo‘jaligi va energiyani tejaydigan tizimlar joriy etildi.

Niderlandiyada amalga oshirilgan qishloq xo‘jaligi islohotlari qisqa vaqt ichida yuqori samaradorlikka olib keldi. Mamlakatda zamonaviy issiqxonalar, avtomatlashtirilgan fermalar, raqamli kuzatuv tizimlari va vertikal dehqonchilik usullari keng tarqaldi. Ilm-fan va amaliyot integratsiyasida yetakchi bo‘lgan Wageningen universiteti butun Yevropada innovatsion agrotexnologiyalar markaziga aylandi.

Hozirda Niderlandiya dunyodagi ikkinchi yirik qishloq xo‘jaligi eksportchisi hisoblanadi (AQSHdan keyin), yillik eksport hajmi 100 milliard yevrodan oshadi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Raqamli dehqonchilik, vertikal ferma va akvaponika texnologiyalari joriy etildi. Aqlli sug‘orish tizimlari va dronlar yordamida kuzatuv texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Organik dehqonchilik maydonlari ko‘paydi. Nitrat va pestitsid ifloslanishini kamaytirishga doir qat’iy chora-tadbirlar ko‘rildi. Fermerlarning davlat bilan barqaror hamkorligi mustahkamlandi. Atrof-muhit va qishloq xo‘jaligi siyosatlari o‘zaro bog‘liq holda olib borilmoqda.

Niderlandiya va Xitoyning qishloq xo‘jaligida erishgan natijalari turli islohot modellari orqali amalga oshgan bo‘lsa-da, ularning umumiy jihati – davlat siyosatining qat’iyligi, ilm-fan va texnologiyaga tayangan yondashuvdir. Niderlandiya ekologik barqarorlik va texnologik yetakchilik orqali yuqori darajadagi eksportchi davlatga aylangan bo‘lsa, Xitoy esa ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va bozorga integratsiyalash orqali ijtimoiy barqarorlikka erishgan. Ikkala tajriba ham boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o‘rnak bo‘la oladi.

Rossiyaning qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlari, quyidagi bosqichlardan iborat.

Ya’ni tarixiy kontekst va boshlang'ich Islohotlar (1990-1999): Sovet tizimining yemirilishi, 1991-yilga kelib kolxozlarda 95% yer davlat mulki, 85% texnika 10 yildan ortiq ishlagan, eskirgan, mehnat unumdorligi AQShdan 5 baravar past bo‘lgan;

1990-yillarda "Yer islohoti"(1990) qonuniga asosan kolxozchilarga yer uchastkalarini berish (12 mln kishiga yer taqsimlandi), Prezident farmoni №323 (1991) xususiy fermer xo'jaliklarini joriy etish (280 000 yangi fermer ro'yxatdan o'tdi), "Yer mulkchiligi" (1993) yer sotib olish huquqini kafolatlash(amalda faqat 4% yer sotilgan).

Tizimli Transformatsiya (2000-2012): Putin Davridagi Asosiy Islohotlar. Moliyaviy mexanizmlar - kreditlash: 2006-yil Rossiya Qishloq Xo'jaligi Banki (Rosselkhozbank) tashkil etildi. 2008-yilga kelib yillik kredit hajmi 120 mlrd rublga yetdi. Subsidiyalar: Yoqilg'i uchun 30% kompensatsiya. Donchilik uchun 1500 rubl/ga subsidiyalar ajratildi[8].

1-jadval

Viloyatlar bo'yicha natijalar

Viloyat	Yer maydoni (mln. ga)	Don ishlab chiqarish (mln t)	Modernizatsiya darajasi (%)
Krasnodar	4.8	12.5	72
Stavropol	3.2	8.1	65
Rostov	3.5	9.3	68
Altoy	2.1	4.2	45

Zamonaviy Davr (2014-2024) importni almashtirish dasturi tafsilotlarida mahsulotlar bo'yicha natijalar: go'sht: 2013-yilda 45% import → 2023-yilda 12%, sut mahsulotlari: 34% → 9%, sabzavot: 52% → 21%.

2-jadval

2024-yil holatiga statistik ko'rinish

Ko'rsatkich	2014	2024	O'zgarish
Yalpi mahsulot	$69 mlrd	$152 mlrd	+120%
Eksport hajmi	$21 mlrd	$45 mlrd	+114%
Xususiy fermerlar	320 000	480 000	+50%
O'rtacha hosildorlik (ts/ga)	18.5	26.3	+42%

Tizimli muammolar va yechimlar. Asosiy muammolar: infratuzilma; 60% qishloq yo'llari qattiq qoplamasiz va omborxonalarning 45% eskirgan. Iqlim; har yili 2-3 mln gektar yer qurg'oqchilikka uchraydi va janubiy viloyatlarda suv tanqisligi

40%ga yetgan. Kadrlar; qishloq aholisining 65% 45 yoshdan katta va har yili 15 000 mutaxassis shaharlarga ko'chib ketadi.

Davlatning Strategik yechimlari: 2025-yilgacha mo'ljallar; 250000 yangi ish o'rni yaratish va 1400 km yangi sug'orish sistemalari hamda 45 ta yangi agro-sanoat parki tashkil qilish.

Dissertatsiya uchun tadqiqot yo'nalishlari: Taklif etilgan mavzular; Reglamentlarning samaradorligi, 2002-yil yer kodeksining uzoq muddatli oqibatlari va 2014-yil sanksiyalarining ijobiy ta'siri paradoksi.

3-jadval

Xalqaro taqqoslash[7]

Mamlakat	**Yer islohoti yili**	**Xususiy fermerlar ulushi**	**Eksport hajmi**
Rossiya	2002	89%	$45 mlrd
Ukraina	2001	78%	$28 mlrd
Qozog'iston	2003	65%	$9 mlrd

Innovatsion yondashuvlar: Raqamli fermerlikning iqtisodiy samaradorligi va biotexnologiyalarning qishloq xo'jaligiga tatbiqi.

Metodologik yondashuvlar: Kvantitativ tahlil; Panel ma'lumotlar tahlili (2000-2024) va Granger sababiylik testi.

Kvalitativ tahlil; 50 ta fermer bilan chuqur intervyular va ekspert baholash usuli (Delphi metodi).

Qozog’iston respublikasi mustaqillikdan keyin agrar sektorda bosqichma-bosqich islohatlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratdi va uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Yer tuzilishini amalga oshirish;

Yer islohoti Qozog'istonning agrar tuzilmasida markaziy o'rinni egallaydi. Yerga egalik, ko'chirish va mulk shaklini belgilovchi qonunlar orqali yangi tizim shakllantirildi.

1991–1995 yillar: Yer munosabatlari qayta ko'rib chiqildi, davlat yerlari xususiylashtirish uchun ochildi.

1995 yilda Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida yer davlat mulki deb belgilandi, ammo xususiy mulk sifatida egalik qilish huquqi ham tan olindi.

2003 da qabul qilingan Yer kodeksiga ko'ra, shaxsiy va yuridik shaxslar yerga egalik qilish mumkin bo'ldi.

2. Xususiylashtirish va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish;

Sovet davridagi kolxoz va sovxozlar tugatilib, ular o‘rnida kichik va o'rta fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

1998 yilda “Fermer xo'jaliklari to'g'risida”gi qonun qabul qilinib, fermerlar faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Fermerlarga texnika, urug'lik, kredit va konsalting xizmatlari ko'rsatish tizimini yaratildi.

3. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va investitsiyalar;

Qozog'iston hukumati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga texnika, ishlab chiqarish, urug'lik, o'g'it uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar orqali (subsidiyalar) va “KazAgro” xoldingdan imtiyozli kreditlar ajjratish tufayli faol yordam berdi:

4-jadval

Qozog‘iston qishloq xo‘jaligida qonunchilik asoslari va davlat dasturlari[9]

Qonun yoki hujjat nomi	Qabul qilingan yili	Mazmuni
Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi	1995	Yer va mulk munosabatlari, davlat va xususiy mulk shakllarini belgilaydi.
Yer kodeksi	2003	Yerga egalik qilish, foydalanish va ijaraga berish tartibini tartibga soladi.
“Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi qonun	1998	Fermerlar faoliyati, huquqlari va ularning yuritilish shakllari belgilangan.
“Agrosanoat majmuasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qonun	2015	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga davlat yordam mexanizmlarini belgilaydi.
“Agrobiznes – 2020” davlat dasturi	2013–2020	Agrosektorni modernizatsiya qilish, subsidiyalar, kreditlash va infratuzilma.
“Auyl – El Besigi” dasturi	2019 – hozirgacha	Qishloq joylarni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilma va aholi sharoitlarini yaxshilash.

Qozog‘iston hukumati tomonidan amalga oshirilgan Agrobiznes – 2020” va Auyl – El Besigi” dasturlari orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga samarali va texnik ko‘mak ko‘rsatildi. Subsidiyalar, grantlar va soliqlarni taqdim etish orqali kichik va o'rta fermerlar faoliyati rag'batlantirildi. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish – omborlar, sovitkichlar, transport tizimlari – eksportini ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynadi.

Ekologik dehqonchilik, suvni tejovchi texnologiya (tomchilatib sug'orish, lazer yordamida yer tekislagichlar) joriy etildi.

Qozog'iston tomonidan amalga oshirilgan qishloq xo'jaligi islohoti quyidagi natijalarni berdi: Iqtisodiy yordam: yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi oshdi, eksporti mustahkamlandi; Ijtimoiy yordam: qishloq aholisi bandligi ortdi, yangi ish o'rinlari yaratildi; Huquqiy qo'llab -quvvatlash: mulkchilik tartibga solindi, fermer xo'jaliklari huquqlari kafolatlandi; Ekologik yordam: zararsizlanishga samarali agrotexnologiyalar joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, Qozog'istonning qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlari bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, qishloq infratuzilmasini modernizatsiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash orqali agrar tarmoqda rivojlanish taraqqiyotiga yordam berdi.

Ukrainaning qishloq xo‘jaligida amalga oshirgan islohotlari qonunchilik asosida amalga oshirilib, fermerlik harakati, agrobiznes hamda erkin bozorlarda iqtisodiy qishloq xo'jaligi tizimi shakllana boshladi.

Islohotlarning bosqichlarini quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

Mustaqillikdan keyingi bosqichda(1991–2000yy) kollektiv xo'jaliklar (sovxoz va kolxozlar) tugatilib, shaxsiy dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, korporatsiyalar va aksiyadorlik jamiyatlari shakllantirildi.

1992 yilda agrar savdo boshlanib, yerlar aholiga “ulushi” (pai) tarzida bo'lib berildi, biroq bu yerlar bilan erkin savdo qilish huquqi to‘liq berilmagan edi.

Keuingi rivojlanish bosqichida(2001–2013yy) yerga egalik qilish va olib borish qonunchiligi takomillashtirildi. Fermerlar va agrobiznes korxonalariga davlat kreditlari, subsidiyalar, soliq imtiyozlari kabi rag'bat mexanizmlari joriy etildi. Ukraina qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport bozoriga chiqdi, don, kungaboqar moyi va makkajo'xori eksporti jadal o'sdi.

5-jadval

Asosiy qonunchilik asoslari

Qonun yoki hujjat nomi	Qabul qilingan yili	Mazmuni
Ukraina Konstitutsiyasi	1996 yil	Yer xalq mulki deb e'lon qilingan, xususiy egalik huquqi tan olingan.
Yer kodeksi	2001 yil	Yer bo'yicha egalik, yuklash, ijaraga berish va meros qilish tartibi.
“Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi qonun	2003 yil	Fermer xo'jaliklarini tashkil etish va boshqarish.
“Yer muomalasi to'g'risida”gi qonun	2020	Yer sotish va sotib olishida yangi normalarni joriy qiladi.

“Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi	2017 yil	Agrosektornni rag'batlantirishga yordam, subsidiyalar, grantlar va texnik yordamlar.
“Organik ishlab chiqarish to'g'risida”gi	2018	Organik dehqonchilik, ekologik standartlari va nazorat mexanizmi.

Yevropaga integratsiya va zamonaviy taraqqiyotda (2014–hozirgacha), Ukraina Yevropa Ittifoqi bilan o'z agrar qonunchiligini Yevropa standartlariga moslashtirishga kirishdi. 2020 yilda yer bozori islohoti qabul qilindi, bu esa 2021 yil 1 iyuldan o'z vaqtida sotib olish va sotish imkonini berdi - bu Ukraina tarixida birinchi bor yerga egalik huquqining erkin muomalaga kiritilishi edi.

Ukrayina qishloq xo‘jaligidagini rivojlantirishdagi asosiy dasturlar va tashabbuslar: “Fermerni qo'llab-quvvatlash dasturi” – kichik va o'rta fermerlar uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratildi. “AgroIT” va “raqamli dehqonchilik” vositalari – dronlar, yer monitoringi, sun'iy intellekt asosidagi resurslarni ta'minlash. Yevropa Ittifoqi moliyaviy ta'minlangan qishloq resurslari – infrastrukturani tiklash, eksport standartlarini tuzatish.

Ukraina keyingi yillarda eng yirik don eksportchilari qatoriga kiradi (ayniqsa, bug'doy va makkajo'xoridan). Fermerlar soni ortib, 2023 yil holatiga ko'ra 40 mingdan ortiq rasmiy fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda. Organik dehqonchilik rivojlandi: Ukraina Yevropa uchun organik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Yirik agroholdinglar (agrar konsernlar) kichik fermerlarga nisbatan ustunlikka ega. Urush (2022 yildan ortiq) agrar infratuzilma va eksport yo'llariga zararli ta'sir ko'rsatdi.

Ukraina agrar sektori o'zining murakkab tarixiy yo'lini bosib o'tdi: kollektiv xo'jaliklardan zamonaviy agrobiznesgacha. Qonunchilik va Yevropa integratsiyasi bozor mexanizmlarining joriy etilishi Ukraina qishloq xo'jaligini samarali, eksportga yo'naltirilgan va samarali sohabardoshga aylantirdi. Kelgusida barqarorlikni ta'minlash uchun infratuzilma rivoji, ekologik iqlimlik va kichik fermerlarni yanada faol qo'llab-quvvatlash muhim bo'lib qoladi.

Quyida beshta davlat – Niderlandiya, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston va Ukrainaning qishloq xo‘jaligi sohasidagi asosiy xususiyatlari, yondashuvlari, resurslari, qonunchiligi va natijalari ko‘rsatkichlar asosida taqqoslanadi. Bu tahlil har bir mamlakatning agrar siyosati va innovatsion rivojlanishdagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi.

6-jadval

Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha taqqoslov jadvali

Ko‘rsatkich	Xitoy	Niderlandiya	Rossiya	Qozog‘iston	Ukraina
Yer maydoni (mln ga)	135	1.8	220	97	41
Asosiy mahsulotlar	Guruch,bug‘doy, makkajo‘xori	Sabzavotlar, gullar, sut	Bug‘doy, kartoshka, arpa	Bug‘doy, arpa	G‘alla, kunga-boqar, jo‘xori
Eksport yo‘nalishi	Ichki talab + Osiyo	Yevropa, AQSH	Yevropa, Osiyo	Markaziy Osiyo, Xitoy	Yevropa, Osiyo
Innovatsiyalar	Raqamli tex-nologiyalar rivojlanoqda	IoT, AI, agro-texnologiyalar	Texnologiyalar sekin joriy qilinmoqda	Innovatsiyalar kam	Yevropa tajribasi bilan rivojlanmoqda
Qonunchilik asoslari	Davlat strategi-yasi asosiy rol o‘ynaydi	Yevropa Ittifoqi qonunlariga mos	Federal qonunlar, davlat dasturlari	Milliy agrar dasturlar	Yer islohoti, Yevropa normativlari
Yerga egalik	Davlat mulki (ijara)	Xususiy	Aralash (davlat/xususiy)	Xususiy	Xususiy
Ilm-fan va ta’lim	Agrar universi-tetlar ko‘paydi	Wageningen – yetakchi	Ilmiy markazlar mavjud	Ilmiy salohiyat cheklangan	Universitetlar rivojlanmoqda
Barqarorlik siyosati	Ekologik chora-lar kuchaydi	Green Deal siyosati	Barqarorlik siyo-sati cheklangan	Resurslar ustun	Ekologik str.lar joriy etilmoqda

Har bir davlatning qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi o‘ziga xos yo‘nalishda amalga oshirilgan. Niderlandiya – yuqori texnologik va eksportga yo‘naltirilgan tizimga ega, Xitoy – ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va bozorni rivojlantirishga urg‘u beradi. Rossiya, Qozog‘iston va Ukraina esa yirik yer resurslariga ega bo‘lgan davlatlar bo‘lib, eksport salohiyati va g‘alla yetishtirishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion rivojlanish darajasi va qonunchilik tizimiularning iqtisodiy o‘sish strategiyalariga bog‘liq.

6-jadval

Qishloq xo‘jaligi islohotlari, qonunchilik bazasi va erishilgan natijalari

Qonunchilik bazasi					
Davlat	Asosiy qonunlar	Yerga oid qonunlar	Ekologik me’yorlar	Yangi texnologiya-lar bo‘yicha	Evropa ittifoqi bilan aloqalar
Xitoy	Qishloq xo‘jaligini	Ijara asosida yerga egalik qonunlari	Yashil ishlab chiqarish siyosati	Raqamli qishloq siyosati	Yo‘q

	rivojlantirish to‘g‘risida				
Niderlan-diya	Landbouwschap (1954), Green Deal qonunlari	Xususiy yer mulki qonunlari	Nitrat direktivasi (YI)	Smart Farming qonunlari	YI a’zosi
Rossiya	Agrosanoat to‘g‘risida federal qonunlar	Yer kodeksi (2001)	Ekologik xavfsizlik qonunlari	Agrotexnika innovatsiyalari siyosati	Yo‘q
Qozog‘is-ton	Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida qonun	Yer kodeksi (2003)	Resurslardan samarali foydalanish	Agro-raqamlash-tirish	Yo‘q
Ukraina	Yer bozorini tartibga soluvchi qonunlar	Yer sotish bo‘yicha qonun (2020)	Ekologik nazorat to‘g‘risida	Agrotexnika joriy etish strategiyasi	YI bilan integratsiya
Islohotlar natijalari					
Davlat	Natijalar	Eksport hajmi	Ichki oziq-ovqat xavf.	Innovatsion texnologiyalar	Ilmiy insti-tutlar roli
Xitoy	O‘zini o‘zi ta’minlashga erishilgan	Kattalashtirilmo qda, Osiyo bozoriga yo‘naltirilgan	Yuqori	AI, dronlar, big data	Qishloq xo‘jaligi akademiyasi
Niderlandiy a	Yuqori samaradorlik,	Jahon bo‘yicha 2-o‘rin	Yuqori	IoT, vertikal ferma	Wageningen universiteti
Rossiya	Import o‘rnini bosish, g‘alla eksporti	Top 5 eksportchi	Yuqori	Mahalliy texnologiyalar	Ilmiy institutlar mavjud
Qozog‘iston	Bug‘doy eksporti kuchli	O‘rta	Yuqori	Dronlar, GPS nazorat	Ilmiy markazlar zaif
Ukraina	Yevropaga qaratilgan eksport o‘sdi	Jahon bo‘yicha bug‘doy va kun-gaboqar eksport-chisi	O‘rta	Texnolo-giyalar kirib kelmoqda	Yevropa hamkorliklari

XULOSA

Bu kabi islohotlar O‘zbekistonning yaqin tarixida ham yuz bergan. Mustaqillikning ilk damlarida, sobiq ittifoq davrida shakllangan iqtisodiy tizim buzilib, endilikda mustaqil bo‘lgan mamlakatlar og‘ir iqtisodiy ahvolda qolgandi. Vaziyatdan chiqib ketish uchun O‘zbekistonda qishloq aholisiga oz-ozdan bo‘lsa ham yer ajratilgandi, sobiq kolxozlar yerlari esa oilaviy pudrat asosida oilalarga bo‘lib berildi.

Davlat rejasini bajarib qo‘ygandan keyin yer oilaning ixtiyorida qoladigan bo‘ldi, pudratchi oilalar oyoqqa tura boshladi, qolganlar davlat bergan tomorqalardan foyda ko‘ra boshlashdi.

Aynan shu qarorlar mamlakatni vujudga kelgan ijtimoiy taranglik va iqtisodiy tanglikdan chiqarib olgandi. Chunki bir necha million oila o‘z yeriga «yopishdi» – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtira boshladi. Minglab yakka tadbirkorlar

mahsulotni mamlakat bozorlariga tashib sotishdi, ortganini MDH mamlakatlariga olib borib sota boshlashdi. Qishloqlarda iqtisodiy hayot «qaynadi». Tabiiyki, moddiy ahvoli yaxshilangan qishloq ahli ishlab topgan pullariga o‘ziga kerakli mollarni sotib ola boshladi, bundan esa shaharlarning ahvoli yaxshilandi – sanoat, bozorlarda savdo rivojlandi. Xuddi Xitoydagi kabi zanjirli reaksiya ishga tushayotgan edi.

Biroq, O‘zbekistonda mazkur ijobiy tajribadan tegishli xulosa chiqarilmadi – erishilgan natijani mustahkamlash, ya’ni yerda ishlayotganlarni tobora davlat rejalaridan ozod etish, ularni mustaqil dehqonlarga aylantirib borish, yer egalari sonini ko‘paytirish o‘rniga, aksincha, kamaytirish, rejali qishloq xo‘jaligi salmog‘ini esa ko‘paytirish yo‘lidan borildi.

Keyinroq yuzaga kelgan mehnat migratsiyasining «poydevori» o‘sha paytda tashlangan edi.

Buning ustiga, meva-sabzavotni chetga chiqarib sotish qiyin bo‘lib qoldi (chegara qo‘qqisdan yopiladigan bo‘lib qoldi), iqtisodiy siyosatda salbiy o‘zgarishlar bo‘ldi, erkin konvertatsiya bekor qilindi va h.k.

Hozirda qishloqlarda ba’zilar tomorqalarida ekin ekishdan ko‘ngillari soviganining sababi shu – dangasalik emas. Chunki tavakkalchilik ancha katta.

Qishloq xo‘jaligini isloh qilishning muvaffaqiyatli Xitoy tajribasi «mamlakatimizni isloh qilishda nimadan boshlash kerak?» degan savolga javob go‘yo – islohot zanjirining bosh halqasi biz uchun nima ekanini ko‘rsatib beruvchi ko‘rgazma.

Bizning vaziyatimiz, miqyos ko‘p barobar kichik bo‘lsa-da, Xitoynikiga o‘xshash.

Ammo aytish kerakki, yoshlarga yer berish masalasi hozirgidek, ya’ni faoliyat yuritib turgan fermerlar yerlarining ma’lum qismini bir necha sotixdan qilib yoshlarga bo‘lib berish bilan ijobiy hal bo‘lmaydi.

Masala kompleks hal etilmog‘i lozim: yoshlarga yer uzoq muddatga va huquqlari ta’minlangan holda berilishi lozim. Yoshlar «mana bu mening yerim», deya olsin. Yosh dehqon yerini yaxshi ko‘rsin, yaroqsiz holga keltirib qo‘yishdan qo‘rqsin, har bir qarichini asrab-avaylasin, innovatsiyalar, intensiv uslublar borasida izlansin. Hayotini yer bilan bog‘lasin.

Iqtisodiyotning agrar sektorini modernizasiya qilishda fan va texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarishni axborotlashtirish va intellektuallashtirish tufayli qishloq xo‘jaligiga agroinnovasiyalarni joriy etish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash barobarida dehqonlar daromadi ortishiga ham xizmat qiladi.

Niderlandiya qishloq xo‘jaligi islohot tajribalaridan namuna sifatida amaliy o‘rganib chiqishimiz munkin bo‘lgan bir qancha yo‘nalishlar mavjud.

Yuqoridagi qishloq xo‘jaligi maxsulotlarining ishlab chiqish jarayonlarini statistik tatqiq etishdagi xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda biz ham o‘zimizning qishloq xo‘jaligi islohotimizda quydadi taklif va tavsiyalarni beri o‘tamiz:

1.Qishloq xo’jaligida kichik yer egaligi «xususiylashtirish» islohotini tizimli davom ettirish.

Respublikamizning barcha hududlarida «xususiylashtirish» siyosatini samarali davom ettirish(bu boradagi kelajagi buyuk bolgan islohotga joylarda yetarlicha e’tibor qaratilmayotgani aholiga berilayotgan aksaryat yerlar yer melioratsiyasi talablariga javob bermaydigan, ajratilayotgan yerlar sho‘r yoki sho‘rlanayotgan yerlar bo‘lganligi tufayli davlat islohoti ko’zlangan natijani berolmayapti).

Islohot tizimli, qat’iy reja asosida davom etishi, aholiga qishloq oldi hududlar bo‘lib berilib agarda o‘sha qishloq oldi hududlar yerining holati qoniqarli darajada bo‘lmasa masalan tuproq erroziyaga uchragan bo‘lsa(shamol, suv tasirida) yoki sho‘rlangan yo sho‘rlanayotgan yer bo‘lsa u joylarda agrotexnik tadbirlarni o‘tkazib yerni yaroqli holga keltirib keyin ajratib xususiy qilib berilsa, islohotning samarasi kutilgan natijani beradi. Bu islohotda davlat budjetidan sarf-xarajat qilishdan qo‘rqmaslik kerak.Tarixan malumki «Avval berasan keyin olasan» tamoyili o‘zining natijasini berib kelmoqda. Kichik yer egaligi albatta juda katta bo‘lmagan hududlarni o’z ichiga oladi. Katta yer egalari bo’lgan klasterlar o‘z yerlarini unumdor qilishga yetarlicha mablag‘lari borligini hisobga olsak aksincha kichik yer egalarining bunga ham moddiy ham ma’naviy qurblari yetmaydi. Misol uchun drenaj tizimlarini o‘rnatish ularni qayta yangilash, yaroqsiz holga kelgan yerlarni unumdorligini oshirish uchun texnikalardan foydalanish katta mablag‘ sarflanadigan ishlardir.Yerlar o‘z holicha bo‘lib berilsa islohot samarasi juda ko‘p vaqtga cho‘zilib ketishi mumkin. Dehqonlar yerdan yaxshi hosil ololmasalar ularda tushkinlik kayfiyati yuzaga kelib islohot natija bermasligi mumkin.

Nima uchun aynan ba’zi joylarda unimdor bo‘lmasada qishloq oldi hududlar bo’lib berilishi kerak degan savolga hozirgi kunda suv tanqisligi vujutga kelyapti bu holat kelajakda katta muammo sifatida ortib boraveradi. Qishloq xo‘jaligida suvni tejash (tomchilatib va yomg‘irlatib) sug‘orish tizimiga o‘tish zarurati oshib borishini hisobga olsak bu uskunalar uchun elektr energiya kerak.Qishloq hududidan uzoq joylarga sim tortib borishga na hojat, bu ortiqcha harajat va yana unimdor bo‘lsada qishloqdan uzoq bo’lgan joylar ortiqcha qiyinchilik tug’diradi.

Bu islohotdan ko’riladigan natijalar;

1. Xususiy bo‘lgan yerda ishlov berish yaxshilanib maxsulot sifati, unumdorligi ortadi va qishloq xo‘jaligida samaradorlik oshadi.

2. Davlatni iqtisodiy tomondan rivojlantiradi. Shuni takidlash joizki o‘zga davlatlar taraqqiyotining asosi bo‘lgan islohotlarni o‘rganish va ular tajribasining negizini olish bizga yetarli bo‘ladi. Biz o‘sha sohani boshqacha usulda o‘zimizga moslab xalqning moddiy va ma’naviy holatiga qarab o’zimizning «o‘zbekcha» modelimizga moslashtirishimiz maqsadga muvofiqdir.

3.Suvni tejash samaradorligi ortadi. Tomchilatib va yomg’irlatib sug‘orish tizimiga o‘tish jarayoni tezlashadi.

4.Aholi o‘zini o‘zi band qilib muhimi ishsizlik sezilarli kamayadi.

5.Jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning yuzaga kelishi oldini oladi. Yaqin kelajakda klasterlar faoliyati rivojlanib taraqqiy etib boraversa qishloq va shahar oldi hududlarda ish beruvchi katta qatlam, unda ishlovchi ishchilar kichik qatlam ijtimoiy tengsizlik ko‘zga tashlanib qoladi. Xususiylashtirish o‘rta qatlamni shakllantiradi va ijtimoiy muvozanatni saqlaydi.

Avvalo, hammasi bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Ya’ni dehqonlarning ishlariga hech kim aralashmasligi kerak: nima ekishni, kimga sotishni o‘zlari hal qilishlari lozim. Meva-sabzavotni eksport qilish imkoniyatlari maksimal yengillashtirilishi kerak.

Yana shuni aytish kerakki, mazkur tadbirlar ko‘plab yukni davlat egnidan soqit qiladi. Shunda hokimlar-u, ichki ishlar xodimlari, prokurorlarga yig‘im-terimni nazorat qilish uchun dalaga chiqishiga, majburiy mehnatga ham hojat qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. МаоГэсунг. Особенности реформирования аграрного сектора КНР. // «Международный сельскохозяйственный журнал», 2002, № 1. –С. 29-31.
2. Мао Гэсунг. Система семейного подряда – основа эффективной формы реформирования аграрного сектора в КНР. // «Международный сельскохозяйственный журнал», 2002, № 2. –С. 39-42.
3. Bryan Lohmar, Fred Gale, Francis Tuan, and Jim HansenAgricultural China’s OngoingAgricultural ModernizationChallenges Remain After 30 Years of ReformBulletin. Number 51. April 2009
4. The importance of Ukraine and the Russian federation for global agriculturalmarkets and the risks associated with thewar in Ukraine.Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO)/ chief-economist@fao.orgwww.fao.org
5. Strategy for Agricultural Statistics 2020 and beyond and subsequent potential legislative scenarios. Text as supported by the ESSC in its meeting on November 19 2015, to be implemented by the DGAS and related Working

Groups.European Commission EUROSTAT Directorate E: Sectoral and regional statistics Unit E-1: Agriculture and fisheries
6. Manbalar va ma'lumotlar bazasi; Rasmiy manbalar, Rosstat (www.gks.ru), Qishloq xo'jaligi vazirligi (mcx.gov.ru) va Markaziy bank statistikasi (cbr.ru).
7. Xalqaro hisobotlar: FAO: "Russia's Agricultural Transformation" (2023), World Bank: "From Crisis to Export Leader" (2022) va USDA: "Grain Market Analysis" (2024).
8. adi.zan.kz - “Yer to'g'risida”gi Kodeksning to'liq matni, unga xabarlet o'zgarishlar bilan.
9. “Farmer xo'jaliklari to'g'risida”gi qonun (1998) Manba: adilet.zan.kz - Fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, huquqiy maqomi va faoliyati bo'yicha qonun.
10. “Agrosanoat majmuasini davlat tomonidan ishlab chiqilgan qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi qonun (2015) Manba: adilet.zan.kz - Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ishlab chiqarish jarayonida qo'llab-quvvatlash jarayonlari haqida.
11. “Agrobiznes – 2020” dasturi (2013–2020) Manba: Qozog'iston Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy - gov.kz orqali e'lon qilingan dastur hujjatlari va sharhlari.
12. “Auyl – El Besigi” dasturi (2019–hozirgacha) Manba: Qozog‘iston Respublikasi Milliy iqtisodiyot vazirligi va “Nur Otan” partiyasining ijtimoiy loyihasi bo‘yicha ma’lumotlar – strategiya2050.kz va gov.kz.
13. Digital Kazakhstan (2018–hozirgacha) digitalkz.kz – raqamli transformatsiya dasturlari, shu Man agrotexnologiyalarni joriy qilish jarayoni.
14. https://kun.uz14.03.2021. Shokir Sharipov
15. https://uza. Uz. 10.09.2019
16. https://*bg.qianzhan.com* Sep 26, 2021
17. https://srcyrl.vizda-industrial.com/news/agricultural-exports-in-the-netherlands-68178827.html
18. © 2013 - 2025"Texnik uskunalar markazi" kompaniyasi.
19. .https://www.eurasian-research.org/publication/an-overview-of-agricultural-development-of-russia/?lang=ru
20. https://ru.wikipedia.
21. https://blog.agrokebety.com/agrarno-politicheskiye-resheniya
22. https://dlf.ua/ru/selskoe-hozyajstvo-v-ukraine/
23. https://ru.wikipedia

24. https://погодавполе.рф/selskoye-khozyaystvo-kazakhstan
25. https://Zuenko, 2020
26. https://ru.ruwiki.ru
27. http://cu-4.narod.ru/index.files/Economika/Chinaekref.htm
28. http://www.roman.by/r-17774.htm